




TEMIR YO‘L TRANSPORT TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VAZIFALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17490085>

Abdurazakov Sherzod Xasanovich

Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismlari iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy, texnik, ekologik va xodimlardan iborat bo‘ladi. Temir yo‘l transportini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan konseptual modelning o‘zida amaliy tavsiyalar, yondashuvlar va chora-tadbirlar majmuini jamlagan mamlakat temir yo‘l transportining barqaror strategik rivojlanishiga erishish mexanizmi va asoslangan strategiya zarur. Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish bo‘yicha yangi sharoitlarda barcha faoliyat sohalarida butunlay yangi texnologiyalardan foydalanish zarur. O‘zbekiston temir yo‘l transportining raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan qarorlarning samaradorligini ta‘minlash uchun murakkab qaror qabul qilish jarayonining konseptual modelini yaratishni taklif etiladi, bu model esa qandaydir optimallashtiruvchi shart-sharoitlarni amalga oshirish uchun, xususan tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarini, resurslar taqsimotini maqbullashtirish va boshqalar uchun zarur bo‘lgan turli yondashuvlarni ko‘rib chiqishni nazarda tutishi lozim.

Taklif etilgan model - bu tarmoq raqobatbardoshligini boshqarish tartibqoidalarini, shu jumladan maqsadlarni belgilash, maqsadli dasturlarni shakllantirish, ushbu dasturlarni amalga oshirish uchun resurslarga bo‘lgan ehtiyojni hisoblash, resurslarni ishlab chiqarish dasturlarini hisoblash va ushbu dasturlarni ob‘ektlarga muvofiq rejalashtirish kabilarni imitatsiya qilishga imkon beradigan murakkab ob‘ektlarni qismlarga bo‘lish (ajratish) va birlashtirish (tuzish) sxemasidir. Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi uning tegishli rivojlanish darajasini yaratish bo‘lib, bu barqaror iqtisodiy o‘shish sharoitida mamlakat va aholining tashuvga bo‘lgan muhim hayotiy ehtiyojlarini qondira olishi, ya‘ni ortda qolayotgan infratuzilmadan iqtisodiyot talablariga mos keluvchi rivojlangan infratuzilmaga eng tez o‘tishni ta‘minlashi lozim. O‘zbekiston temir yo‘l transportini kompleks rivojlantirish strategiyasining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash uchun uni strategik integratsiyalash sxemasini taklif qilamiz (15-rasm).




15-rasm. Temir yo‘l transportini strategik integratsiyalash sxemasi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish bo‘yicha konseptual modeli 16-rasmda ko‘rsatilgan. Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish-moliyaviy salohiyati, xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tartibga solish mexanizmidan foydalanish, milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati, davlat siyosati va boshqa ko‘plab omillar bilan bog‘liq.

Globallashuv: jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish: xalqaro tranzit koridorlarini rivojlantirish; multimodal tashuvlarni rivojlantirish; xalqaro logistika muvofiqlashtirish markazini rivojlantirish. **Insorting integratsiyasi:**

tashish faoliyatini ta‘minlovchi ixtisoslashtirilgan korxonalar; temir yo‘llarini ta‘mirlash infratuzilmasining ixtisoslashtirilgan korxonalari; temir yo‘l telekommunikatsiya infratuzilmasining ixtisoslashtirilgan korxonalari; ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish; temir yo‘l transporti uchun kadrlar tayyorlaydigan ixtisoslashtirilgan korxonalar. **Autorsing integratsiyasi:** logistika va omborxona markazlari. ekspeditorlik va autorsing kompaniyalari soha va transport kompaniyalari **Diversifikatsiya:** yirik mintaqaviy, respublika va xalqaro loyihalarda ishtirok etish; innovatsiya va investitsiya faoliyati; tarmoq pensiya jamg‘armasini tashkil etish; sug‘urta fondlarida ishtirok etish; maslahat xizmatlari.



16-rasm. Temir yo'l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning konseptual modeli

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Taklif etilayotgan yondashuvlar globallashtirish sharoitida temir yo'l transporti faoliyatini diversifikatsiya

qilishning turli yondashuvlaridan foydalangan holda insorting (vertikal) va autsorsing (gorizontal) integratsiya asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bu uning raqobat ustunliklarini bosqichma-bosqich



oshirishni ta'minlaydi. Temir yo'l transport tizimi tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning konseptual modelining faqat ayrim yo'nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan umumiy yondashuvdan farq qiladi. Bundan tashqari, texnologik omillar o'rniga integratsiyaning iqtisodiy motivlari – tegishli biznes-tuzilmalarning manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu sxemadan temir yo'l transportini bozor omillari asosida rivojlantirishda foydalanish uning barqaror va har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda quyidagi omillar yordam beradi:

1. Insorting integratsiyasini faollashtirish, u ishlab chiqarish bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi temir yo'l majmuasining barcha asosiy quyi tizimlarining mutanosib rivojlanishini ta'minlaydi, rejali ta'mirlash xarajatlarini kamaytiradi, transport xizmati ko'rsatish sifatini oshiradi. O'z zavod infratuzilmasini rivojlantirish tashqi yetkazib beruvchilarning xizmatlariga qaramlikni kamaytiradi, yangi ish o'rinlarini yaratishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga, sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining malakasini oshirishga, mehnat unumdorligini ko'tarishga, yangi qo'shimcha qiymat

yaratishga, xo'jalik faoliyatidagi noaniqlik darajasini pasaytirishga va innovatsiyalarning keng tarqalishiga yordam beradi.

2. Outsorsing integratsiyasining afzalliklarini amalga oshirish tashuv xizmatlari bozorini kengaytiradi, transport xarajatlarini va iqtisodiyotning yuk sig'imini kamaytiradi, bu esa pirovardida yanada yuqori samaraga erishishni ta'minlaydi.

3. Strategik diversifikatsiyani kengaytirish raqobatbardoshlikning innovatsion bosqichiga jadal o'tishni, qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini yaratishni, investitsiya tavakkalchigini kamaytirishni kafolatlaydi va hokazo.

4. Globallashuv sharoitida jahon transport tizimiga integratsiyalashuv temir yo'l transportining strategik raqobatbardoshligining oshishini ta'minlaydi, unga tashqi bozorlarda davlat tomonidan himoyalash va qo'llab-quvvatlashni talab qiluvchi "geosiyosat ob'ekti" maqomidan "geosiyosat sub'ekti" maqomiga o'tish imkonini, nafaqat o'z mas'uliyati doirasida, balki chet elda ham yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel yangi tahrir;
2. "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi - O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.11.2024 yildagi O'RQ-1006-son;



3. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.10.2023 yildagi 329-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan.
6. Ravshanov M.A. Yo‘l-transport majmuasi iqtisodiy salohiyati. Muammo va yechimlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – 196 b.
7. Fayzullayev J.S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 – 0892 Vol9 Issue–2, Dec -2019.
8. Fayzullayev, J.S. (2021) "Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system," Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1.
9. Upravlenie proektami: Osnovy professionalnykh znaniy. Natsionalnye trebovaniya k kompetentnosti specialistov. — M.: Proektnaya praktika. — 2010. — 256 s.